

Innovatsion yondashuv asosida ta`lim-tarbiya samaradorligini takomillashtirish

Hozirgi kunda barcha ta`lim muassasalari axborot kommunikatsion texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bunday imkoniyatlarning yaratilayotganligi har bir pedagogni o`z mehnat faoliyatiga innovatsion yondashuvni ya`ni, dars jarayonini texnik vositalardan foydalanib tashkil etishni talab etmoqda.

Bunday dars jarayonini yaratishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- mashg`ulotning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o`quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o`qitish metodlari;
- o`quv topshiriqlarining turlari;
- muhokama uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;

Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko`nikmasiga ega bo`lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo`llay olishi lozim:

- yangi o`quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;
- dars mashg`ulotlari uchun prezentatsiya taqdimotlarini tayyorlash;
- darsga metodik tayyorlanish, qo`shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;
- kompyuter texnologiyalari asosida o`quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Pedagogik texnologiyaning ta`rifida ta`kidlanganidek, dars jarayonini loyihalash, aniq maqsad belgilash va shu maqsad asosida ko`zlangan natijalarni to`g`ri tanlangan metodlar zamirida kafolatlash mumkin. Ana shunday dars turlaridan biri-slayd asosida yaratilgan dars mashg`ulotidir.Slayd o`zi nima?

Slayd - ma`lum bir o`lchamga ega bo`lgan muloqot varaqalari hisoblanib, unga muayyan bir maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylashtiriladi. Slayd asosida yaratilgan dars loyahasiga kompyuter yordamida o`quv va didaktik materiallar kiritiladi. Darsning har bir bosqichi matnlar, rasmlar, chizmalar yoki jadvallar ko`rinishida kiritiladi. Bunda matnlarni WORD dasturida, grafiklarni esa POWER POINT taqdimot dasturi yordamida kiritiladi. POWER POINT dasturi-qanday dastur?

POWER POINT dasturi-universal, imkoniyatlari keng bo`lgan, ko`rgazmali grafika amaliy dasturi bo`lib, unda matnlar, rasmlar, grafiklar, chizmalar, jadvallar, animatsiyalar, ovozlardan iborat slayd tayyorlanadi. POWER POINT dasturi Microsoft firmasining Windows qobig`i ostida yaratilgan bo`lib, taqdimotlar o`tkazish uchun eng qulay dastur hisoblanadi.

Prezentatsiyani tashkil qilish va o`tkazish ko`p jihatdan tashkil etuvchi shaxsga ya`ni pedagogning nutq madaniyatiga, mahoratiga va qobiliyatiga bog`liq. O`qituvchining o`quvchilar bilan ijodiy muloqotga kirishishlarini ko`zlab

tayyorlangan slaydlarni to`g`ri rejalashtirish va reja asosida navbat bilan ekranda mohirona namoyish qilish o`qituvchidan katta mas`uliyat va malakani talab qiladi.

Prezentatsiyani tayyorlashda quyidagi omillarga e`tibor qaratish lozim:

- sinf (auditoriya) ning muhitga mosligiga;
- o`quvchilarning yosh, fiziologik, psixologik xususiyatlariga;
- o`quvchilarning iqtidoriga;
- prezentatsiyaning mavzuga mosligiga va hokazolar.

Prezentatsiya tayyorlash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- g`oyaning shakllanishi;
- mavzu tanlash;
- reja tuzish;
- matn tanlash;
- dizayn tanlash;
- animatsiya tanlash;
- ovozlar kiritish;
- jadvallar qo`shish;
- xatolar ustida ishlash;
- ish natijalarini saqlash(soxranit)

Tayyor prezentatsiyani namoyish qilish uchun kompyuter, maxsus ekran va videoproektorlar kerak bo`ladi. Bu o`qituvchidan maxsus tayyorgarlikni talab etadi.

Elektron taqdimot - slaydlardan ko`rgazmali material o`rnida foydalanish o`qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Birinchidan, o`qituvchi o`quvchilarning diqqatini bir joyga jamlashga erishadi. Sinfxonada maxsus ekran orqali darsning har bir bosqichini namoyish qilish o`quvchining nazaridan chetda qolmaydi, albatta. Ayniqsa, slaydlarni tayyorlash jarayonida dizayn va animatsiya tanlash bosqichlarining to`g`ri va sifatli bajarilganligi taqdimot samarasini yanada oshiradi.

Ikkinchidan, o`qituvchi darsni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida optimallashtirib - kam kuch va kam vaqt sarflab, ko`p va katta samaraga erisha oladi.

Uchinchidan, dars jarayonida o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin. Bu o`rinda turli interfaol metodlarni, didaktik o`yinlarni qo`llash muhim. Har bir tanlangan o`yin ta`limiy ahamiyat kasb etishi ya`ni, o`tilgan yoki yangi mavzuni o`zida aks ettirishi va albatta o`quvchining shaxsiga yo`naltirilgan bo`lishi lozim.

To`rtinchidan, o`qituvchi darsni yanada qiziqarli o`tishi uchun munozara va bahslarni axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi mumkin. Munozara uchun tayyorlangan savollarni turli hayvonlar rasmi yoki bolalarning o`yin faoliyatida mavjud bo`lgan o`yinchoqlar tasviri bilan birga namoyish qilish mumkin. Bu orqali o`quvchilarni bahs-munozaraga jalb qilish va o`z fikr- mulohazalarini erkin va ijodiy ifoda etishlari uchun imkoniyat yaratishi mumkin.

Dars jarayonini prezentatsiyalar asosida tashkil qilish quyidagi afzalliklarga ega:

- bilimlarni mukammal o`zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

- vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- bilimlar manbaining bola xotirasida uzoq saqlanib qolishi;
- bolalar diqqatini bir joyga jalb qilish imkoniyatining mavjudligi;
- o`z bilimlarini namoyish qilish va taqqoslash imkonini berishi;
- o`quvchilar faolligini oshirishi;
- o`quvchilarni hamkorlik va hamijodkorlikka undash;
- o`z fikrini ifodalash, himoya qilish va isbotlashga o`rgatish;
- o`quvchilar bilimlarini xolisona baholash;
- barcha jarayonni umumlashtirish va xulosa chiqarish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta`lim samaradorligini ta`min etuvchi asosiy omil o`quvchining bilim o`zlashtirishga bo`lgan qiziqishi va faolligidir. Shunday ekan, har bir pedagog o`quvchini ruhan oziqlantiradigan va faollikka undaydigan yangi zamonaviy texnologiya va usullarning ijodkori hamda targ`ibotchisi bo`lishi lozim.

Shodiyeva Matluba
Qashqadaryo VXTXQTMOI
Maktabgacha, boshlang`ich va
maxsus ta`lim kafedراسi mudiri